

ALISHER NAVOIY IJODIDA IJTIMOIIY BORLIQ MASALALARI

Turobov Bekpulat Nusratullayevich

Samarqand davlat chet tillar instituti,
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalar
kafedrasi dotsenti, PhD.

<https://orcid.org/0000-0002-6124-2295>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida ijtimoiy borliq masalalari borasida fikr yuritilgan va uning adabiyot olamidagi yaratgan ijod namunalari taxlili berilgan. Ulug' shoir Alisher Navoiyning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlari yuksak badiiy mazmun va shaklda tasvirlangan. Bu fikrlar umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun o'sha davr va hozirgi kunda ham o'zining falsafiy va axloqiy ahamiyatini yo'qotgan emas.

Kalit so'zlar: ijod, bilim, tafakkur, badiiy, asar, borliq, falsafiy meros, zamon va makon.

Abstract: This article discusses the issues of social existence in the work of Alisher Navoi and analyzes his creative works in the world of literature. The socially significant thoughts of the great poet Alisher Navoi are depicted in a highly artistic content and form. Since these thoughts have universal significance, they have not lost their philosophical and moral significance at that time and today.

Keywords: creativity, knowledge, thinking, artistic, work, existence, philosophical heritage, time and space.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы социального существования в творчестве Алишера Навои и анализируется его творчество в контексте литературы. Социально значимые мысли великого поэта Алишера Навои представлены в высокохудожественном содержании и форме. Поскольку эти мысли имеют универсальное значение, они не утратили своей философской и моральной значимости ни в то время, ни сегодня.

Ключевые слова: творчество, знание, мышление, искусство, труд, существование, философское наследие, время и пространство.

Kirish. Shoirning ijodi boy va ko‘p qirrali bo‘lib, unda borliqning mohiyati, inson hayotining mazmuni haqida chuqur falsafiy mulohazalar yuritilgan. Alisher Navoiyning asarlarida borliq, bilish, rivojlanish, mazmun va shakl va shu kabi falsafiy muammolarning yuksak mahorat bilan badiiy usulda talqin qilinishi uni falsafa fanining bilimdoni deb hisoblashga dalil bo‘la oladi. Alisher Navoiyning falsafiy merosida borliqning mohiyati, tuzilishi to‘g‘risidagi mushohadalar hozirgi davrda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgan emas. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” asarida borliqning yaratilishidan maqsad inson ekanligi to‘g‘risida xulosa qilingan:

Muncha g‘aroyibki misol aylading,
Borchani mir'oti jamol aylading.
Ganjing aro naqdi farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi.¹

Asosiy qism. Navoiyning fikricha, borliq zamon va makon nuqtai nazaridan cheksizdir. Demak, borliq bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalar, inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar, hatto jamiyatda yuz beradigan hamma jarayonlarni qamrab oladi. U falsafa nuqtai nazaridan keng ma'noda bir butun reallik sifatida tushuniladi. Mutlaq borliq zoti e'tibori bilan vahdatga, ya'ni birlikka ega, u zotan yagonadir. Koinotdagi hamma narsa va hodisalar, ya'ni mavjudot mutlaq borliq sifati zuhuri, ya'ni turli-tuman ko‘rinishidan iboratdir. Mavjudotning muayyan makoni bor, chunki u zamon va makonda cheklangan. Ammo mavjudot ham yo‘qdan bor bo‘lmagan. Navoiyning fikricha, mutlaq borliqning harakati natijasida koinot vujudga kelgan. Mutafakkir bu jarayonni quyidagicha bayon etadi:

Чу бир жунбуш этти аён баҳри зот,²

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. “Hayrat ul-abror”. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. T.: 1991. B.16.

Падид ўлди³ амвожидин коинот.⁴

Panteizm ta'limotiga asoslangan Navoiy borliqning umumiyligini uning ilohiyligi va ilohiy substantsiyaning yagonaligi bilan tushuntiradi. U cheksiz, barcha narsani o'z ichiga oladigan tabiat ko'rinishida namoyon bo'ladi, unda yashiringanday bo'lib, qorishib ketadi. Navoiyning falsafiy merosi tadqiqotchisi professor M.Oripovning yozishicha: "Tabiat xudoning tashqi ifodasi, aks etishi (tajalliy)dir. Uning ichki sifatleri tub sifatlar (zot sifatlar) bo'lib, ular birlik (ahadiyat), ibtidoiylik (avval), abadiylik (abad) va cheksizlikdan iboratdir. Uning tashqi sifatleri (zohir sifatlar) moddiy olamning barcha turli-tumanligini vujudga keltiradi.⁵

Inson borlig'i o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra eng murakkab borliq shakli bo'lib, falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, inson, dastavval, tabiatning eng oliy tirik mavjudotidir. Inson, ayni paytda, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli bo'lgan ijtimoiy mavjudot hamdir. Navoiyning fikricha, yerdagi hamma narsadan eng qadrlisi insondir. Insonning qadr-qimmati mezoni ijtimoiy kelib chiqishi va mol-mulki emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatleri hisoblanadi. Olamdagi barcha narsalar (Quyosh, tog'lar, dengiz, daryolar, havo, olov, tabiat, xullas, barcha borliq) insonga xizmat qilish uchun yaratilgan. U panteizm ta'limotiga asoslanib, insonni ilohiylashtiradi, uni ilohiy mavjudlik deb hisoblaydi. Agar Xudoga muhabbat bo'lsa, insonni hurmat qilish kerak, chunki u Xudoning to'liq, mukammal namoyon bo'lishidir. Inson Xudoning konkret namoyon bo'lishidan iborat bo'lib, u cheksiz istakka ega bo'lishi, erkin harakat qilishi mumkin. Demak, u o'z taqdirini o'zi hal qiladi va qilishi kerak. Shuning uchun Navoiy ijobiy qahramonlarining birortasi fatalist⁶ emas. Shuning uchun ular maqsadga erishishga intilib, yo'llaridagi to'siqlarni yengishga harakat qiladilar.

² Bahri zot -zot dengizi. Bunda mutlaq borliqning zoti dengizga o'xshatilgan.

³ Padid o'lmoq — paydo bo'lmoq.

⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n birinchi tom. Xamsa. "Saddi Iskandariy". "Fan" nashriyoti. Toshkent-1993. B. 3.

⁵ Aripov A. Gumanizm Alishera Navoi. Tashkent. "O'zbekiston", 1991. B. 90.

⁶ Taqdirga ishonuvchi.

Bundan kelib chiqqan holda Navoiy inson xohishlarini real zaruriyatda, aniqroq aytganda, ba'zi munosabatlarda ijtimoiy bog'langanlikda ko'radi. Tirik mavjudotlar to'rtta unsurdan iborat (anosir-i-arbaa). Bular olov, suv, havo, tuproq, ya'ni issiq, sovuq, ho'l va quruqdir. Inson ham tirik mavjudot bo'lganligi uchun unga shu unsurlar ham xosdir. Inson hayoti shulardan kelib chiqadi va shuning uchun inson bilishga qodir.⁷

Navoiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib bora oladigan kishilarni "ma'no ahli", aksincha esa, ularga e'tiborsiz va yuzaki qaraydigan kimsalarni "suvrat ahli" deb ataydi. Suvrat ahlining insoniy hissiyotlari sust rivojlanganligi uchun, ular nafsining vaqtinchalik oromini o'ylaydilar. Uni lazzat deb hisoblaydilar. Aslida surat ahlining insonga aziyat beruvchi ishlar lazzat bag'ishlaydi, degan fikrga borishlari mohiyatni bilmaslikdan kelib chiqadi.

Muxokama/Natija. Sharqshunos olim Ye.E.Bertels e'tiroficha bu Navoiyning o'sha davr falsafiy tafakkuri darajasidan juda baland ko'tarilganini ko'rsatadi.⁸ Navoiy odam asosan hayot jarayonida insoniy xislatlarga ega bo'lib boradi, deb hisoblaydi. Inson instiktiv harakat qiladigan hayvondan farqli o'laroq aql, fahm-farosat, fikrlash, bilish qobiliyati, o'zida u yoki bu predmetlar to'g'risida muayyan, tizimli bilim hosil qilish, til in'omi, o'zining fikrlari, bilimlari, boshqalarga berish ko'nikmasiga ega. Bu ijtimoiy fikrni vujudga keltirib, insonning hayvondan ustunligini bildiradi.⁹ Insonda muhabbat eng muhim ijtimoiy tamoyil bo'lib, vazifasi esa o'z yaqinlariga xizmat qilishdan iboratdir. Navoiy kishilarga foyda keltirishni hayot mazmuni, deb bilgan insonlarni ulug'laydi. Umrini faqat insoniyatga xizmat qilishga bag'ishlagan kishilargina odam degan ulug' nomga munosibdir, degan aqida ulug' shoirning hayot falsafasi hisoblanadi. Navoiy asarlarida ulug'langan inson mavhum odam emas. Shoirning e'tiroficha,

⁷ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n birinchi tom. "Saddi Iskandariy". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent-1998. B. 49-53.

⁸ Бертельс Е.Э. Навоий. Монография. /Таржимон. И.К.Мирзаев-ф.ф.д.-Т.: "Tafakkur qanoti", 2015. Б. 214-215.

⁹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n birinchi tom. "Saddi Iskandariy". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent-1998. B. 94

butun mavjudot olami, narsalar dunyosi, har qanday voqelikda inson eng aziz va eng qadr-qimmatli b•lib, tashqi qiyofasi ham, ichki dunyosi bilan ham go‘zaldir.¹⁰

Mutafakkirning fikricha, shunday toifadagi odamlar ham borki, ular tashqi qiyofasi bilan insonga o‘xshaydi. Ammo ularning kirdikorlari inson degan nomga munosib emas. Bunday odamlarni inson deb atash risolaga to‘g‘ri kelmaydi. Ular bilan d•stlashgan kishilarning obro‘-etiboriga putur yetishi ham mumkin. Shuning uchun bunday kishilardan uzoqroq yurish maqsadga muvofiq. Shoir bu fikrlarini she'riy tarzda quyidagicha bayon qiladi:

Kimniki, inson desang, inson emas,

Shaklda bir, fe'lda yakson emas.

Kimniki, aylay der esang mahraming,

Ko‘p sinamay aylamagil hamdaming.¹¹

Ammo Navoiy o‘z falsafiy qarashlarida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o‘zgartirish mexanizmlari masalasini qo‘ya olmagan. U o‘zi yashagan davr ijtimoiy voqeligining salbiy hodisalarini tanqid qildi, ammo jamiyat rivojlanishi ob'ektiv qonunlarini tushuna olmadi. Navoiy hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan sharqshunos olim Ye.E.Bertelsning fikriga binoan, shu davrda jiddiy ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirmay, faqat hokimiyat tepasida turgan amaldorlarning o‘rnini almashtirish hech qanday natija bermas edi. Chunki bunday islohotlar uchun ob'ektiv shart-sharoit va sub'ektiv omillar bo‘lmagan. Shu davrda bunday vaziyatning bo‘lishi ham mumkin emas edi. Navoiy buni juda yaxshi anglardi, lekin ijtimoiy muhitni o‘zgartirish uning qo‘lidan kelmasdi. Boshqa tomonda yondashsak, u ham saroy ahli safida muhim mavqega ega edi. Shu tufayli g‘amgin kayfiyat ba'zi-ba'zida shoirni chulg‘ab olgan bo‘lishi kerak.¹² Navoiy o‘zi yashagan davr ijtimoiy hayotini o‘rganadi, turli-tuman ziddiyatli va murakkab voqealarni kuzatadi. Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyatdagi turli tabaqalarning haqiqiy qiyofasini tavsiflaydi. Ye.E.Bertels “Navoiy”

¹⁰ G‘anieva S. Alisher Navoiy. (Hayoti va ijodi). O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. 1968. B. 26

¹¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. “Hayratul-abror”. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. Toshkent-1991 .B. 350.

¹² Bertels Ye.E. Navoiy. Monografiya. /Tarjimon. I.K.Mirzaev-f.f.d.-T.: “Tafakkur qanoti”, 2015. B. 165.

monografiyasida “Mahbub ul-qulub” haqida ham mulohaza bildirib, bu falsafiy hikmatnomani boy hayotiy tajribaga asoslangan va zamonga jiddiy baho berilgan asarlardan biri deb hisoblaydi.¹³ Falsafiy mushohadalarga boy bo‘lgan bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchi qismda turli tabaqa va kasbdagi odamlarga axloqiy-pasixologik tasnif beriladi. Unda yutuq va kamchiliklar, odil va adolatsiz hukmdorlar, saroydagi katta amaldorlar va ularning axloqi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bular Navoiyning sotsiologik qarashlaridan dalolat beradi. Asarning ikkinchi qismida axloqiy fazilatlar, ularning jamiyat hayotidagi roli va o‘rni ko‘rib chiqiladi. Bu yerda Navoiy falsafiy tahlil asosida, insonning axloqiy hayoti mezonini aniqlaydi. Uchinchi qismda esa aforizmlar, erkin ifodalar va chuqur mazmunli hikmatlar berilgan. Alisher Navoiyning asarlariga falsafiy mushohadalarining quruq mantig‘i va mavhum pastulatlar¹⁴ xos emas.¹⁵

Ijtimoiy muhit unsurlari haqida fikr yuritgan Navoiy, eng avvalo, ularning asosiylari siyosiy institutlar, muassasalar, davlatdir, deydi. Bu omillar qanday bo‘lsa, jamiyat xarakteri, odamlarning tabiati, faoliyati, tafakkur tarzi shunday bo‘ladi. “Mahbub ul-qulub” asarida podshoh qanday bo‘lsa, uning fuqarolari ham shunday bo‘ladi, deb yozadi. Podshoh yaxshi inson ekanligini yoki yaxshi ish qilayotganini ko‘rgan fuqarolar unga taqlid qiladilar va shu ruhda tarbiyalanadilar. Demak, inson uni o‘rab tugan olamdan ajralgan holda o‘z qobig‘ida yashay olmaydi. Uningcha, jamiyat hodisalar joyi, uyidir. Hech kim undan tashqarida, mustaqil bo‘lishi mumkin emas. Ammo shu bilan birga, odamning ijtimoiy muhitga qaramligi, jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisalar oldida hech kim degan ma’no kelib chiqmaydi. Haqiqatdan odam nima yaxshi-yu, nima yomonligini fikrlaydi, ularni bir-biridan ajrata oladi. O‘z pozitsiyasi nuqtai nazaridan yomonlikka qarshi turishi mumkin. Shuni ham ta’kidlash joizki, ijtimoiy muhit tushunchasiga, Navoiy bir yoqlama yondashadi. U ijtimoiy muhit deganda, jamiyatning moddiy hayoti sharoitlarini emas, balki siyosiy institutlar, davlatni,

¹³ Xalliyeva G. XX asr Rossiya sharqshunosligi va o‘zbek mumtoz adabiyoti. Monografiya. Toshkent. 2018. B.116-117.

¹⁴ Isbotsiz ham qabul qilinaveradigan dastlabki qoida, faraz.

¹⁵ Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. Ташкент. “Ўзбекистон”, 1990. Б. 25.

hukmdorlarni tushundi. Uningcha, ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun sub'ektiv omillar-tarbiya, fan, aql, axloqiy ta'sir zarur. Xususan, eng avvalo axloqiy ta'sir yo'li bilan, axloqiy omillar yordamida halqning hayotini yaxshilash mumkin.¹⁶

Xulosa. Kuzatishlar asosida shunday xulosaga keladiki, odamlar biologik nuqtai-nazardan birday tug'ilsalar-da, keyinchalik esa hayot jarayonida tafakkur tarzi, odatlari, xulq-atvorlari jihatidan turlicha bo'ladilar. Navoiyning anglashicha, insonning istaklarini belgilaydigan ichki va tashqi omillar mavjud. Tashqi omil ijtimoiy muhit bo'lib, inson usiz yashay olmaydi, odam bo'lmaydi, ichki omillar esa insonning manfaati va foydani ko'zlashidir. Navoiy asarlarida borliq kategoriyasi yuksak mahorat bilan badiiy usulda talqin qilingan va qo'llanilgan. Shuningdek, falsafiy g'oyalar ulug' mutafakkir dunyoqarashining barcha asosiy belgilarida mujassam bo'lgan. Mutafakkir ijodiga dialektik tafakkur usuli xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. "Hayrat ul-abror". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. T.: 1991. B.16.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n birinchi tom. Xamsa. "Saddi Iskandariy". "Fan" nashriyoti. Toshkent-1993. B. 3.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. "Hayratul-abror". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent-1991 .B. 350.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n birinchi tom. "Saddi Iskandariy". O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent-1998. B. 49-53.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'ninchi tom. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. Toshkent-1991 .B. 133-136.

¹⁶Захидов М. Мир идей и образов Алишера Навои. Государственное издательство художественной литературы УзССР. Ташкент-1961. С. 314.

6. Aripov A. Gumanizm Alishera Navoi. Tashkent. "O'zbekiston", 1991. B. 90.
7. Bertels Ye.E. Navoiy. Monografiya. /Tarjimon. I.K.Mirzaev-f.f.d.-T.: "Tafakkur qanoti", 2015. B. 214-215.
8. Захидов М. Мир идей и образов Алишера Навои. Государственное издательство художественной литературы УзССР. Ташкент-1961. С. 314.
9. Xalliyeva G. XX asr Rossiya sharqshunosligi va o'zbek mumtoz adabiyoti. Monografiya. Toshkent. 2018. B.116-117.
10. G'anieva S. Alisher Navoiy. (Hayoti va ijodi). O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 1968. B. 26.